

XORAZM VILOYATI MINTAQASI IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMA TARMOG'I HOLATI TAHLILI

Qo'ziboyev Umarbek Ulug'bekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti,

e-mail: umarbek.kuziboev@urdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18162999>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilma tarmog'i holatining tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilma tarmog'i faoliyatini samarali tahlil qilish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.

Аннотация. В данной статье анализируется состояние сети транспортной инфраструктуры в контексте устойчивого развития экономики Хорезмской области. Также приводятся выводы и предложения по эффективному анализу деятельности сети транспортной инфраструктуры в контексте устойчивого развития экономики Хорезмской области.

Abstract. This article analyzes the state of the transport infrastructure network in the sustainable development of the economy of the Khorezm region. Also, conclusions and proposals are given on the effective analysis of the activities of the transport infrastructure network in the sustainable development of the economy of the Khorezm region.

Kalit so'zlar. Mintaqa, mintaqqa iqtisodiyoti, transport, infratuzilma, transport infratuzilmasi, tarmoq, tahlil.

Ключевые слова. Регион, региональная экономика, транспорт, инфраструктура, транспортная инфраструктура, сеть, анализ.

Key words. Region, regional economy, transport, infrastructure, transport infrastructure, network, analysis.

Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati, xususan qishloq xo'jaligi (paxta, galla va mevasabzavot), chorvachilik, oziq-ovqat sanoati, turizm va xizmatlar sohalari transport infratuzilmasi bilan bevosita bog'liq. Shu bois, viloyatda mavjud avtomobil yo'llari tarmog'i, temir yo'l aloqalari, xalqaro aeroport, shaharlararo va tumanlararo yo'lovchi tashish tizimi holatini o'rganish mintaqani barqaror rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Transport infratuzilmasi tarkibiga aeroportlar, temir yo'l yo'lovchi stansiyalari, avtobus terminallari, magistral va mahalliy yo'llar, muhim strategik ahamiyatga ega ko'prik va tunnellar, shuningdek, avtobuslar, temir yo'l harakat tarkiblari, havo kemalari, shaxsiy va jamoaviy foydalanishdagi avtomobillar, yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatini ta'minlovchi portlar kiradi [1]. Xorazm viloyati transport infratuzilmasi turli sohalarda tahlil qilinadi. Xususan, Xorazm viloyati turizm sohasida transport infratuzilmasining o'zgarish tahlili uning rivojlantirish yo'nalishlarini talab qiladi [2]. Chunki, viloyatda transport tizimi iqtisodiyot tarmoqlari yuklarini tashish va aholiga xizmat ko'rsatishda muhim o'rin tutib, viloyatning izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Unga asosan, transport logistika markazlarini rivojlantirish Xorazm viloyati iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarishda ishtirok etadi. Mazkur jarayonda xalqaro tajribani o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mahalliy xususiyatlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Statistik ma'lumotlarga asosan, Xorazm viloyatida 2024-yilda yo'lovchi tashish 2023-yilga nisbatan 106,8 foizga o'sdi. Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahriga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 126,2 foizni tashkil etgan [4]. Shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyati transport infratuzilmasining hozirgi holatini, mavjud muammolarni, rivojlanish tendensiyalarini hamda viloyat iqtisodiyoti barqaror o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar bevosita ilmiy yondashuv asosida o'rganishni taqozo qiladi.

Xorazm viloyati transport tarmog'i quyidagi asosiy yo'nalishlardan tashkil topadi:

- avtomobil yo'llari tarmog'i. Viloyat bo'yicha avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 3000 km. dan ortiq bo'lib, ular davlat ahamiyatiga molik magistrallar va mahalliy yo'llardan iborat. Muhim hududlarni bog'laydigan transport magistrallari ayniqsa yuk tashish hajmining o'sishi bilan ortiqcha yuklama ostida qolmoqda.

- temir yo'l transporti. Xorazm viloyatida temir yo'l aloqasi asosan Urganch - Toshkent, Urganch - Qo'ng'iro't - Nukus va Urganch - Buxoro yo'nalishlarida faoliyat yuritadi. Biroq, temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiya darajasi yetarli emas, yangi logistika tugunlari talab qilinadi.

- havo transporti. Urganch xalqaro aeroporti tashqi turizm oqimi, xorijiy yuk tashish va mintaqalararo havo qatnovlari bo'yicha asosiy transport nuqtasidir. Aeroport turizmning, ayniqsa Xiva shahrining YuNESKO merosi sifatida tan olinishidan keyin, sezilarli darajada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

- jamoat transporti tarmog'i. Viloyat bo'yicha avtobus va mikrobuslar asosiy yo'lovchi tashish vositalaridir. Urganch, Xiva va tuman markazlari o'rtasidagi qatnov tizimi mavjud bo'lsa-da, transport vositalarining sifati yetarli emas.

- logistika va yuk tashish infratuzilmasi. Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yuqori salohiyatga ega. Shu sababli, sovtukichli omborlar, logistika markazlari, intermodal transport tugunlarining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilma tarmog'i holatida uning turli yo'nalishlarini tahlil qilib chiqamiz. Xususan, Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining dinamik qatori tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyatida 2010-2024-yillarda avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining dinamik qatori, ming yo'lovchi-km [5]

Hududlar nomi	2010-y.	2012-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Xorazm viloyati	3200896,0	3773813,0	4293589,2	4608521,1	6954913,4	7122054,5	7319351,4	7556545,5	6993116,7	8086149,1	8412550,0	8571885,1	8984098,3
Urganch shahri	472088,5	556585,9	633245,8	685694,1	1395247,8	1428576,5	1330634,5	1473556,7	1274946,1	1506510,4	1618329,9	1659755,1	1736671,7
Xiva shahri					274401,9	283630,3	286311,2	365219,8	129569,2	266683,1	253285,5	257835,9	318605,6
Bog'ot tumani	276626,8	326139,3	371059,2	393276,3	283951,4	290405,6	309510,6	312985,8	296570,1	339237,8	357365,3	362549,3	379191,0
Gurlan tumani	253378,5	298729,8	339874,6	366804,3	622338,2	649318,6	671812,0	680317,6	648642,1	736806,5	759294,2	771985,0	810420,3

Qo'shko'p ir tumani	259622, 0	306090, 8	348249, 4	376793, 4	448158, 7	461390, 6	481982, 2	490317, 1	466925, 9	531059, 1	545844, 5	556670, 1	582924, 9
Urganch tumani	320644, 9	378036, 0	430103, 8	456651, 7	603042, 0	620311, 5	646434, 5	664284, 9	623111, 2	711132, 1	734188, 4	749740, 0	789721, 0
Hazorasp tumani	314432, 8	370712, 0	421771, 1	449707, 8	888261, 0	896977, 2	919969, 3	965872, 7	680816, 7	844741, 4	764350, 2	776505, 4	867315, 9
Tuproqqa l'a tumani									186637, 4	167318, 8	327578, 7	332788, 1	285117, 3
Xonqa tumani	299090, 8	352624, 0	401191, 7	426619, 0	630315, 9	637199, 5	673016, 3	699513, 1	677078, 3	754733, 6	769070, 5	782621, 7	823008, 9
Xiva tumani	286792, 1	338124, 0	384694, 6	416911, 8	557119, 3	575855, 5	602391, 3	544689, 1	724352, 7	705104, 3	758656, 6	773507, 7	755425, 4
Shovot tumani	295325, 9	348185, 2	396141, 6	425198, 4	543235, 4	560099, 5	626916, 3	593413, 1	587578, 3	690233, 6	662345, 7	674221, 7	717608, 9
Yangiariq tumani	226177, 0	266659, 7	303387, 3	328640, 6	436857, 0	441617, 8	464095, 8	468598, 0	403523, 1	487912, 9	531994, 7	536154, 3	560816, 5
Yangiboz or tumani	196716, 6	231926, 2	263870, 0	282224, 7	271984, 9	276672, 0	306277, 5	297777, 5	293365, 6	344675, 5	329950, 8	337550, 7	357270, 8

Mazkur 1-jadvalga asosan, 2010-2024-yillarda Xorazm viloyati iqtisodiy ko'rsatkichlari yilma-yil o'sib borgan. Ayniqsa, 2016-yildan keyin o'sish sur'ati sezilarli tezlashgan. Eng yuqori ulush Urganch shahri va viloyat markazlashgan hududlarga to'g'ri keladi. Xususan, Urganch shahrining ko'rsatkichlari yillar davomida barqaror o'sib, 2024-yilda hududlar orasida eng yuqori natijalardan biriga ega bo'lgan. 2016-yilda deyarli barcha tuman va shaharlarda jadal o'sish qayd etilgan. Bu yilda iqtisodiy faollik yoki statistik metodologiya o'zgarishi ehtimoli yuqoriligini anglatadi. Ko'plab hududlarda 2020-yilda pandemiya ta'siriga xos bo'lgan pasayish yoki o'sishning sekinlashuvi kuzatilgan. 2021-2024-yillarda barcha hududlarda ko'rsatkichlar yana ortgan va 2024-yilda barcha tuman va shaharlarda eng yuqori qiymatlar qayd etilgan. Ayrim hududlarda notekislik kuzatilgan, xususan, Xiva shahri va Tuproqqa'l'a tumanida ma'lum yillarda tanaffus kuzatilgan. Hazorasp, Shovot va Xiva tumanlari esa 2020-yilda pasayishga uchragan bo'lsa-da, keyingi yillarda tez tiklangan. 2020-yilda qisqa muddatli pasayish bo'lgan, ammo 2021-yildan boshlab barqaror o'sish qayta tiklangan.

Xulosa shuki, Xorazm viloyatida transport infratuzilmasi mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi. Avtomobil, temir yo'l, havo transporti hamda logistika tizimining samaradorligi viloyatning savdo-iqtisodiy, turistik va investitsion salohiyatini belgilab beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm transport infratuzilmasida sezilarli yutuqlar mavjud bo'lsa-da, uni modernizatsiya qilish, rekonstruktsiya qilish va innovatsion texnologiyalar asosida qayta tashkil etish talab etiladi. Barqaror transport tizimi viloyatda iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, aholi farovonligi va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, transport infratuzilmasini rivojlantirish Xorazm viloyatining uzoq muddatli strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Fikrimizcha, transport infratuzilmasi holatini yaxshilash uchun transport monitoringi uchun IoT sensorlar joriy etish, yo'l qatnovini boshqarish uchun sun'iy intellekt algoritmlari, "yashil transport strategiyasi"ni ishlab chiqish, elektr energiyasi bilan ishlovchi avtobuslar parkini tashkil etish, raqamli logistika tizimlarini joriy etish, viloyatni logistika markaziga aylantirish, hududni "Xiva - Toshkent - Samarqand - Buxoro" turistik halqasiga qo'shish hamda Yevroosiyo transport yo'laklari bilan bog'lash va transchegaraviy savdo yo'laklarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jumaniyazova R.Q. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Urganch, 2025 - 11 b.
2. Чупонов С.О. Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli. // Молодой ученый, 2017, №24.1 (158.1). - с. 33-35. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44585>
3. Raximov A. Xorazm viloyatida transport logistika markazlarini rivojlantirish orqali mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlash. // Modern Science and Research, 4(1), 2025. - 232 b. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63865>
4. Sharipova B.B. Xorazm viloyatida transport xizmatlari ko'rsatishning amaldagi holati tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025-yil, sentyabr. No9-son. - 675 b.
5. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/services-2>